

**BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LAR ICHKI AUDIT TIZIMINI OLIY TA'LIM
MUASSASALARIDA TAKOMILLASHTIRISH**

Mamatkulov Murodjon Shukurovich

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti, Buxgalteriya xisobi va audit kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari doktori.

Email: m.mamatkulov@tilame.uz

Xamrayev Sherzod Ramazonovich

"O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi" magistranti

Email: bek-1989@inbox.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada byudjet tashkilotlaridan oliv ta'limga muassasalarida davlat moliyaviy nazorat usullaridan biri ichki audit xizmatini rejalashtirish va takomillashtirishning dolzarb masalalari, asosiy tamoyillari, usullari va xususiyatlari haqida yozilgan. Bunda davlat, xorijiy va nodavlat oliv ta'limga muassasalarining mulkchilik shakliga ko'ra tarkibi, ularning o'ziga xos bo'lgan farqli jihatlari, ta'limga muassasalaridagi byudjetdan tashqari mablag'larining tarkibiy tuzilishi va buxgalteriya hisobining ob'ektlari tadqiq qilingan. Shu bilan birgalikda maqolada byudjet tashkilotlarida byudjet hisobi va nazoratini takomillashtirish bilan bog'liq hozirgi kundagi muammolar va ularni bartaraf etishning nazarini hamda amaliy jihatlari ko'rib chiqilgan.

Tayanch so'zlar: buxgalteriya hisobi, byudjet tashkiloti, ichki audit, moliyaviy nazorat, moliyaviy hisobot, moliya - xo'jalik faoliyati byudjetdan tashqari mablag'lar, davlat moliyaviy nazorati, byudjet nazorati, ichki nazorat xizmati, sметalar, daromad, xarajatlar.

Hozirgikunda 300 mln.dan ortiq talabalar 40 mingdan ortiq oliv ta'limga muassasalarida ta'limga olmoqda. Bu ko'rsatkich keyingi 5 yillikda Osiyo va Yevropa davlatlaridagi oliv ta'limga muassasalarida ta'limga olish istagi borlar hisobidan yana oshishi bashorat qilinmoqda. Jahon ta'limga bozordagi aylanma o'rtacha 120 mlrd.dollarni, bunda oliv ta'limga muassasalarining ulushi 40-85 mlrd.dollarni tashkil etmoqda. Bu o'z navbatida ta'limga oluvchilarining oliv ta'limga muassasalari tanlanishida sifatli ta'limga berilishi, halqaro reyting ko'rsatkichlaridagi egallagan yuqori o'rniiga, ta'limga muassasasining imidjiga hamda bitiruvchilarining nufuzli tashkilotlarda ishlashlari bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazaridan mamlakat oliv ta'limga muassasalari faoliyatida ham ushbu ishlarga alohida e'tibor qaratilishi, kelgusida oshishi kutilayotgan ta'limga oluvchilarining jalb qilish yo'llarini topishi, kuchayib borayotgan raqobat kurashida munosib ishtiroy etib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashi, ilm-fan, ishlab chiqarish, biznes va jamiyatning muhim bo'g'ini sifatida tadbirkorlik faoliyatlarini asosida byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilishi zarur bo'ladi. Bu o'z navbatida oliv ta'limga muassasalarining mavjud moddiy-texnik bazasi, ilmiy salohiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'limga xizmatlarini ko'rsatishlari bilan birga ilmiy tadqiqot natijalari va yaratilgan innovatsiyalarni biznes sub'ektlariga amaliyotiga joriy etish orqali qo'shimcha byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilishlari zarur bo'ladi.

Byudjet tizimida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar natijasida O'zbekistonda Davlat byudjeti ijrosini amalga oshirishning mukammal me'yoriy huquqiy hamda tashkiliy asosi yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Yo'riqnomasi va boshqa bir qator muhim me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Davlat byudjeti ijrosining ushbu

me'yoriy hujjatlar doirasida amalga oshirilishi byudjet daromadlari va xarajatlari o'zaro muvofiqligini ta'minlab kelmoqda. Ichki audit tizimining joriy qilinishi nafaqat byudjetning bosh tasarrufchisi bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan davlat byudjeti mablag'lari maqsadli ishlatilishini, byudjet tashkilotlari samaradorligini, mutaxassislardan oqilona foydalanish, axborot oqimlari ishonchliligi va shaffofligiga erishish, balki bu borada vakolatli tashkilotlar oldida to'laqonli hisobotlarni ta'minlash va shu orqali boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish imkoniyatini beradi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" 14.02.2022 yildagi PQ-128-sun qarori, "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 27 avgust 2021 yilgi PF-6300 son Farmoni Davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish hamda byudjet mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish, shuningdek, 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi amalga oshirishga oid belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ichki audit hizmatini yanada takomillashtirishga qaratilgan. Asosan Hisob palatasi, Moliya vazirligi, vazirliklar va idoralarni ichki audit xizmatlariga byudjet qonunchiligi buzilishiga alohida e'tibor qaratish yuklatildi. Bunda byudjet tashkilotlarida ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'g'ri hisoblanishi, davlat dasturiga kiritilgan ob'ektlarda qurilish ishlarini monitoring qilish va ularni nazoratini o'tkazish, byudjet subsidiyalarini manzillilagini va samaradorligini baholash, davlat xaridlari talablari ijrosini nazorat qilish va davlat qarzi va grantlar hisobiga amalga oshirilayotgan loyihalar samaradorligini o'rganish yuklatildi. Asosiy maqsad byudjet qonunchilagini buzish holatlarining oldini olish va byudjet intizomini mustahkamlashga qaratilgan.

1. Byudjet tashkilotlarida hisobni yuritishda mas'ul xodimlarni tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqida yetarlicha xabardor emasligi natijasida moliyaviy tartibbuzarliklarga yo'l qo'yilishi;

2. Davlat moliyaviy nazorati organlari (Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari, Davlat soliq xizmati organlari) tomonidan o'rGANishlar o'tkazilganda mablag'lardan maqsadsiz foydalanish, moliyaviy kamomadlar, byudjet intizomiga rioya qilinmaganligi holatlari aniqlanishi;

Byudjet tashkilotlarida ichki audit faoliyatini joriy qilinishining zaruriyati quyidagi 4 ta bilan izohlanadi:

3. Byudjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimi yetarli darajada yo'iga qo'yilmaganligi natijasida hisobni yuritishda xatoliklarga yo'l qo'yilishi;

4. Byudjet tashkilotlari moliya - xo'jalik faoliyati samaradorligini baholash tizimi mavjud emasligi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili

Byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmati o'z faoliyatini rejalashtirish asosida amalga oshiradi, bu qoida tariqasida taqvim yilini o'z ichiga oladi. Ichki audit xizmati rejasi mavjudligi ichki audit xizmatining muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur shartdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida reja tuzilgan va ko'rib chiqilayotgan davrda o'zgartirilishi mumkin. Vaqt vaqt bilan faoliyatdagi o'zgarishlarga va oliy ta'lif muassasa ehtiyojlariga muvofiq ravishda ko'rib chiqilishi kerak.

Ichki audit xizmatining faoliyat rejasi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishi kerak:

1.rejali tekshirishlar, shu jumladan quyi tashkilotlarning ro'yxati

2.maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun davlat xizmatlarini ko'rsatish sifati va samaradorligini ta'minlash uchun tashkilot xodimlariga maslahat berish va o'qitish

3.tekshirishlar natijalari bo'yicha hisobotlar va tavsiyalarni tayyorlash vaqtini va tartibini

4.ichki audit natijalarini muvofiqlashtirish va tasdiqlash mexanizmi

5.me'yoriy hujjatlar, uslublar, ko'rsatmalar va boshqalarni ishlab chiqish va tasdiqlash

6.davlat xizmatlarini amalga oshirish bo'yicha normativ va uslubiy hujjatlar bilan ishlash va ularga kiritilgan o'zgarishlarni kuzatib borish

7.ichki audit xizmati faoliyati samaradorligi monitoringi natijalari to'g'risida hisobotlar tuzish va ichki audit tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish

8.ichki audit xizmati xodimlarining doimiy ravishda o'qitilishini ta'minlash

Xorijlik, ushbu sohaning yetuk olimlaridan E.A.Arens va Dj. K.Lobbeklar, "Rejalashtirishning oltita asosiy bosqichi mavjud, ular: oldindan rejalashtirish, umumiy ma'lumotni yig'ish, mijozning majburiyatları mavjudligi to'g'risida ma'lumot toplash, auditorlik xavfi, ichki xavf, biznes xavfi, ichki nazorat tizimi bilan tanishish va boshqarish xavflarini oldindan baholash, audit rejasi va dasturini ishlab chiqish" muhimligini ilgari surishgan.

Jumladan, V.I.Podolskiy, A.A.Savina, L.V.Sotnikova "Ichki audit iqtisodiyot sub'ektida uning mulk egalari manfaatlarini ko'zlab tashkil etilgan va uning ichki hujjatlari bilan tartibga solingen buxgalteriya hisobini yuritishning o'rnatilgan tartibiga amal qilinishini va ichki nazorat tizimi faoliyati ishonchlilagini nazorat qiluvchi nazorat tizimi hisoblanadi" deb fikr bildirgan.

A.V.Evdokimova va I.N.Pashkina "Ichki audit – buxgalteriya hisobi va ichki nazoratni to'g'ri yuritishga javob beradigan tashkilotning ichida qo'llaniladigan nazorat tizimi" sifatida e'tirof etadi.


O'zbekistonlik taniqli iqtisodchi olimlaridan biri S.U.Mehmonov bu borada quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan, "Ichki auditni o'tkazishning boshlang'ich bosqichi uni rejalashtirish hisoblanadi. Auditning rejasida ishning kutilayotgan hajmi, audit o'tkazishning jadvali va

muddatlar, tekshirilayotgan ob'ekt to'g'risida ob'ektiv va har tomonlama asos langan fikrlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan auditorlik amallarining hajmi, turlari va ketma-ketligi ko'rsatib o'tilgan auditorlik dasturi belgilanib o'tilishi lozim. Auditorlik tekshirishlarning umumiy rejasi har hisobot yili boshlangunga qadar tuziladi. Uni tuzishda quyidagilar ko'zdautiladi:

- har bir aniq ob'ektlar bo'yicha tekshiruvchilarni ularning professional xusu siyatları va lavozim darajalariga muvofiq taqsimlash;
- guruhning barcha a'zolari, ularning huquqlari va majburiyatları to'g'risida yo'riqnomalarni chuqur o'rganishlari, tekshirilayotgan ob'ektlar to'g'risida ma'lumotlarni yetkazib berish;
- ishchi hujjatlashtirishni olib borish;
- amalga oshirilgan ishni hujjatli ravishda rasmiylashtirish va uni tekshirilayotgan ob'ektning mas'ul shaxslari bilan muhokama qilish.

Xususan, Hamidova Z.U. "Ichki audit tekshiruvini o'tkazishning byudjet muassasalariga moslashtirib quyidagi turlarga bo'llishi lozim" deb hisoblaydi

Tahlil va natijalar muhokamasi. Oliy ta'lim muassasalarini boshqaruvini tashkil etishda ularni ishonchli axborotlar bilan ta'minlash muhim hisoblanib, bu uning barcha faoliyatları, shuningdek, moliyaviy analitik faoliyatiga ham taalluqli hisoblanadi. Moliyaviy analitik axborotlarining asosini oliy ta'lim muassasalari moliyaviy faoliyati, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarining samaradorligi tahlili, ichki audit tizimi hisoblanadi. Bizga ma'lumki oliy ta'lim muassasalarida byudjetdan moliyalashtirish va uning smeta asosida ijrosini ta'minlashda buxgalteriya hisobi, ichki audit va tahlil ishlari asosida mavjud smeta orqali tashkil etiladi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalaridagi ushbu sohaga oid muammolar sirasiga: faoliyat yo'nalishlari bo'yicha assosiy vositalar uchun amortizatsiya hisoblash va hisobdan chiqarish, alohida aktivlar bo'yicha hisob operatsiyalarini yuritish, ilmiy salohiyati va moddiy texnik ta'minotlari asosida amalga oshiriladigan tadbirdorlik faoliyati yo'nalishlari bo'yicha byudjetdan tashqari topilgan mablag'larning buxgalteriya hisobi va ichki auditni tashkil qilish ishlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.



Olib borilgan tadqiqotlar asosida oliy ta'lim muassasalarining ichki audit va moliyaviy nazorat tizimlarida quyidagi muammolar mavjud ekanligi aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar berildi.

- Oliy ta’lim muassasalarida ichki audit va moliyaviy nazoratni rivojlantirish muhim sanaladi. Chunki ichki audit va moliyaviy nazoratning o‘ziga xos jihatlarini bilishlari ta’lim muassasasi rahbarlariga nafaqat davlat muassasasi bilan bir qatorda moliyaviy mustaqillika erishgan ta’lim tashkilotlari faoliyatini samarali boshqarishni tashkil etishda ushbu shakldan optimal foydalanish imkonini beradi.

- Xalqaro va milliy amaliyotda oliy ta’lim muassasalarining shiddatli raqobat muhitidagi faoliyati, eng avvalo, ta’lim sifati bilan bir qatorda undan iste’molchilarning ehtiyojlarini to’la qondirishga alohida e’tibor qaratiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, mamlakatda bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan ichki audit va moliyaviy nazorat davlat, moliyaviy mustaqillika erishgan va nodavlat oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv faoliyatlarida tobora muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘z navbatida, mazkur ta’lim muassasalarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatida ichki institutsional o‘zgarishlari amalga oshirishni, yuqoridaq belgilangan muammolarining yechimlari bo‘yicha berilgan taklif va tavsiyalar foydalanish zarur bo‘ladi.

- Oliy ta’lim muassasalarida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining “Oliy ta’lim muassasalari bosh auditorining namunaviy lavozim majburiyatları Yo‘riqnomasini tasdiqlash haqida” buyrug‘i bilan bosh auditorning lavozim faoliyatlariga qo‘srimcha ravishda ishlab chiqilgan yo‘nalishlari qo‘sish va ichki moliyaviy nazoratni bevosita kuchaytirishni talab qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida ichki audit va moliyaviy nazoratini mukammaligini ta’minlashga ta’sir etuvchi omillar:

- Xozirda ta’lim muassasalari ichki auditori Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirlikning namunaviy shtat jadvaliga asosan 1 birlik ajratilgan. Lekin ish hajmi ko‘pligi inobatga olinib, qo‘srimcha shtat birligligi kiritish belgilanmagan. Moliyaviy mustaqillikka erishgan Oliy ta’lim muassasalari ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatini tashkil etgan holda shtatlar jadvaliga o‘zgartirish kiritib, ushbu bo‘limga qushimcha ichki auditorlarni jalg qilishga ruxsat berish;

- Elektron ma’lumotlarni kiritib ishslash va kompyuterlashtirilgan tizimlarni samarali tekshirish uchun yetarli salohiyatlari mutaxassislar mavjud emas. Moliyaviy mustaqillikka erishgan Oliy ta’lim muassasalarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatiga shartnomaviy kelishuv asosini malakali kadrlarni, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalarini jalg qilish imkoniyatini mavjud. Moliyaviy mustaqillikka erishgan oliy ta’lim muassasalari Kuzatuv kengashi qarori bilan ish hajmiga qarab 1 yoki 2 qo‘srimcha shtatlar asosida malakali mutaxassislar jalg etilishi mumkin.

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.02.2022 yildagi PQ-128-sodan “O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g’risida” gi Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 avgustdagagi PQ-3231-sodan “Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g’risida”gi Qarori.

3.O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 21 dekabr 2010 yilda 2169-sodan “Byudjet tashkilotlarda buxgalteriya hisobi to‘g’risidagi yuriknomani tasdiklash xakida”ga buyrugi.

4. Podolskiy V.I., Savina A.A., Sotnikova L.V. "Международные и внутрифирменные стандарты аудиторской деятельности: учеб.пособие" М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2010. 288 с.
5. Evdokimova A.V. va Pashkina I.N. "Внутренний аудит и контроль финансово-хозяйственной деятельности организаций: практическое пособие". М.:Издательско-торговая корпорация «Дашков И.К.» 2009. 214 с.
6. Axmedjanov K.B. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. Diss. avtoref. i.f.d.. – Toshkent. 2016.
7. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Byudjet nazorati va audit. O'quv qo'llanma. infoCOM.Uz MChJ. T.: 2010. 192 b.